



## ZAMONAVIY DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI

**Ilmiy rahbar: Karimova Umida Ochilovna**

*Samarqand davlat chet tillari instituti,  
Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrası  
katta o'qituvchisi*

**Talaba: Zokirova Go'zal Abdulloyevna**

*Samarqand davlat chet tillari instituti, Ingliz tili fakulteti  
Xorijiy til va adabiyot(Ingliz tili) yo'nalishi  
1-kurs talabasi [zokirovagozal770@gmail.com](mailto:zokirovagozal770@gmail.com)*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashning pedagogik va metodologik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda ta'lim sifatini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda o'qituvchilar tomonidan dars mashg'ulotlarida interaktiv texnologiyalardan maqsadli foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning kognitiv qobiliyatlarini o'stirish, ularda mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, o'zini o'zi idora qilish va muammoli vaziyatlarda optimal yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari yoritib berilgan

**Kalit so'zlar:** Interaktiv metod, faollik, sun'iy intellekt, ta'lim konsepsiyasi, kasbiy kompetensiya

**Abstract:** This article analyzes the importance of interactive methods in the teaching process. Today, sufficient attention is paid to the development of the educational sphere. Also, teachers, through the use of interactive methods in the teaching process, are developing such qualities as increasing students' abilities, independent thinking, self-management, critical thinking, and the desire to find a way out of a difficult situation by finding a solution to the problem.

**Keywords:** Interactive method, activity, artificial intelligence, educational concept, professional competence



**Аннотация:** В данной статье анализируется значение интерактивных методов в процессе обучения. Сегодня развитию образовательной сферы уделяется достаточное внимание. Кроме того, учителя, используя интерактивные методы в процессе обучения, развивают у учащихся такие качества, как развитие способностей, самостоятельность мышления, самоорганизация, критическое мышление, стремление найти выход из сложной ситуации, найдя решение проблемы.

**Ключевые слова:** Интерактивный метод, деятельность, искусственный интеллект, образовательная концепция, профессиональная компетентность

**Kirish:** Ta'lim sifatining yuqori darajada bòlishi , zamon talablariga javob berishida, yoshlarning yetarli bilim olishida ta'lim beruvchilar mas'uldir. Shu tufayli, o'qituvchilar doim o'z ustida ishlashadi, malaka va ko'nikmalarini oshirish maqsadida mustaqil izlanishadi. Shuni ta'kidlab aytish kerakki, dars jarayoning qiziqarli bòlishi, o'quvchilar bilim olishga o'z xohishi bilan intilishi uchun interaktiv metodlar aholida ahamiyatga ega. Interaktiv metod- bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi orasida faol muloqotga asoslangan, o'quvchilarni dars jarayonida bevosita jalb qilish va qiziqtirishga asoslangan o'qitish usulidir. Tobora rivojlanib borayotgan zamonamizda ushbu metodlarning soni va turi ham ortib bormoqda. Interfaol metodlar berilgan ma'lumotlarni mustahkash, muhokama qilish , erkin fikr bildirish, yoshlar orasida oila muhitini shakllantirishda yordam beradi. An'anaviy darslardan farqli ravishda, interaktiv metodlar orqali dars jarayonini olib borish o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib kelgan. Interfaol me'todlarni to'g'ri tanlansa va ulardan o'qitish jarayoniga mos ravishda foydalanilsa , nur ustiga a'lo nur bo'lar edi, albatta.

**Adabiyotlar sharhi:** So'nggi yillarda o'qituvchilar sun'iy intellekt vositalari orqali dars jarayonini mazmunli va maqsadli olib borishni afzal ko'rishmoqda. Ya'ni sun'iy intellekt platformalari o'qituvchilarga ta'lim jarayoning sifatli bo'lishi uchun turli mashqlar , ijodiy o'yinlar , video darslarni taqdim etadi. Interaktiv metodlar



o'quvchilarga ma'lumotlarni samarali va tushunarli tarzda yetkazishga yordam beradi.

Scott Freeman (2014) interaktiv metodlarning dars jarayonidagi ahamiyatini keng ko'lamli tahlil qildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aktiv ( interfaol metodlar yordamida) o'qitish an'anaviy ma'ruza usuliga nisbatan o'quvchilarning imtihon natijalarini o'rtacha 0.47 SD oshiradi va muvaffaqiyatsizlik ehtimoli an'anaviy darslarga qaraganda sezilarli darajada past bo'ladi. Ya'ni, aktiv metodlar o'qish natijasini yaxshilaydi.

Deslauriers, Schelew & Wieman (2011) — katta auditoriyadagi fizika kursida eksperimental taqqoslash olib borishdi: tadqiqotchilar interaktiv darslarda qatnashgan guruhlarining ishtiroki va bilimi an'anaviy dars ishtirokchilariga qaraganda sezilarli yuqori ekanligini topdi — “ikkinchi marta ko'proq o'rganish” darajasi qayd etildi.

Bonwell & Eison (1991) o'z tadqiqotlarida — aktiv ta'lim konsepsiyasini ommalashtirish, darsga kichik guruh ishlari, muhokama, rolli o'yinlar va muammoli topshiriqlarni kiritish orqali talabanning e'tibori, tafakkuri va o'rganish qiziqishi oshishi mumkinligi targ'ib qilishdi, bu ijodiy pedagogik amaliyotlar uchun asosiy ishonch manbai bo'lib kelishini ta'kidlashdi.

Prince (2004) olib borgan tadqiqotida aktiv metodlar motivatsiya, bilimni saqlash va amaliy ko'nikmalarni oshirishini ko'rsatdi, ammo samaradorlik konkret metod, predmet va sinf kontekstiga bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi - ya'ni implementatsiya sifati muhim.

Xalilova Fotima Baxrom qizi (2025) - interaktiv metodlar — ayniqsa pedagogik jarayonlarda — bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi ko'rsatadi.

Mening nazarimda, har qanday innovatsiya maqsadli yondashuv talab qiladi: ta'lim beruvchilar o'quvchilarning yoshi, bilim va qobiliyati hamda dars jarayoniga mos ravishda interfaol me'todlardan foydalanishlari lozim. Dars jarayonida har bir



ta'lim oluvchiga e'tibor qaratish, ularning shaxsiy fikrini rad etmaslik har bir yosh avlodda bilim olishga qiziqish va motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

**Metodologiya:** Ushbu tadqiqotda zamonaviy dars jarayonida interfaol metodlarning samaradorligini tahlil qilish maqsad qilingan. Interaktiv metodlar talabalarda o'ziga ishonchni oshirish, muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi, guruh bilan ishlash, vaqtni to'g'ri va maqsadli boshqarish uchun foydalidir. Tadqiqot olib borish davomida bir qanda interfaol metodlardan: “Kungaboqar” startegiyasi, “Zinama-zina” strategiyasi”, “Davra suhbat” metodidan foydalanildi. Ushbu metodlardan foydalanish jarayonida yoshlarni rag'batlantish, o'zlashtirgan bilimlariga e'tibor qaratish, bir- birini qo'llab-quvvatlash , amalda bajarish orqali o'rganib, esda saqlash kabi foydali bo'lgan mashg'ulotlar bajariladi. Bu nafaqat o'quvchilar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham birdek kerakli va zarur bòlgan metodlardir.

**Tadqiqot natijalari:** Bugungi kunda ta'lim tizimi amaliyotida keng va faol qo'llanilayotgan bir necha interfaol metodlarning motivation to'g'risida so'z yuritiladi.

**“Zinama- zina” strategiyasi.** Bu strategiya talabalarda o'zlashtirilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuni aytish kerakki, bu strategiya ijodiy yondashuv, suratlar orqali o'z fikrini yoritib berish, tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu strategiyadan foydalanish tartibi:

1. O'rganiladigan mavzu muayyan qismlarga ajratilib, alohida qog'ozlarda ifodalanadi.
2. Talabalar kichik guruhlariga biriktiriladi.
3. Har bir guruhga matn taqdim etiladi.
4. Guruhlar o'zlariga berilgan matn bilan tanishib, ularning motivating belgilangan vaqt ichida markerlar yordamida rasm, tasvir, jadval shaklida ifodalashlari talab etiladi.
5. Belgilangan vaqt tugagach, guruhning bir nafar a'zosi bajarilgan ish bilan jamoani tanishradi.



6. Barcha guruhlarning ishlari o'rganilgach, jamoa tomonidan o'zlashtirilgan mavzuning umumiy obrazi kichik mavzular motivating yorituvchi rasm , tasvir , jadval asosida mantiqiy ketma-ketlikda yozuv taxtasida zinama-zina ko'rinishida joylashtiladi.

7. O'qituvchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan ishlarga izoh berib , zarur o'rinlarda ularga o'zgartirishlar kiritadi.

8. Guruhlarning ishlari ularning mazmuni, sifati va dizayniga ko'ra baholadi, eng ko'p kartochkaga ega ish uchun yuqori ball beriladi.

Shuningdek, “Kungaboqar” strategiyasi, ushbu metodni bajarish davomida o'quvchilarda guruh bilan muammoli vaziyatni muhokama qilish , tezkor fikrlash va uni mukammal tarzda ifodalash talab etiladi. Ushbu metod nafaqat mavzuni tushunish, balki motivatsiya, mustaqil fikrlash, amaliy ko'nikmalar, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar shakllanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

“Davra suhbat” metodi - aylana stol atrofida talabalar o'tirishadi va aniq bir muammo yoki savolni muhokama qilishadi. Belgilangan vaqt tugagach har bir talaba o'z fikr-mulohazalarini bildiriladi. (Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. 2004)

**Xulosa:** So'ngi so'z o'rnida shuni aytishim mumkinki, dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. Har bir o'qituvchi ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun har doim o'z ustida ishlashi va malaka oshirishi lozim. Interfaol metodlardan foydalanishni oshirish ikki tomon vakillariga - o'qituvchi va o'quvchilarga birdek foydali. Ammo ushbu metodlardan oqilona va talabalarga mos ravishda foydalanish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

3. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.
4. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1-6.



5. Umida, K. (2022). The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(4), 1-6.
6. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – С. 367-369.
7. Z.K. Kalendarova. O'quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta'minlashda dars materiallarini tanlash.// *Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash-mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili* . [WWW.kokanduni.uz](http://WWW.kokanduni.uz) Халқаро илмий-амалий конференция . 2024.17-22.б
8. Musurmonov Rahmatilla & Usarboeva D.U & Otaqulov A.,& Kubanbayeva N “Zamonaviy ta'lim metodlari - ta'lim samaradorligi kafolati .(2022)